Diskursiv-pragmatik jihatdan bir frazeologizm turli nutqiy muhitda har xil vazifa bajaradi. *Qo'lga tushmoq* rasmiy xabarda neytralroq «ushlandi» ma'nosida, jurnalistik matnda fosh etish va huquqiy nazorat semalari bilan, badiiy kriminal diskursda esa sujetdagi keskin burilish vositasi sifatida qo'llanadi. Bu kriminal frazeologik birliklarni faqat lingvistik birlik emas, balki jamiyatning huquqiy ongi va axloqiy munosabatini ifodalovchi diskursiv vosita sifatida ko'rishga asos beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Birinchidan, kriminal frazeologiya jinoyat-huquqiy va ijtimoiy-axloqiy konseptlarni obrazli, ekspressiv va madaniy belgilangan shaklda ifodalovchi alohida frazeologik tizim sifatida ajraladi hamda kriminal terminologiyadan baholovchi va pragmatik tabiati bilan farqlanadi. Ikkinchidan, kriminal frazeologik birliklar beshta asosiy konseptual maydon atrofida tizimlashadi va idiomatiklik darajasiga ko'ra asosan frazeologik butunliklar qatlamiga mansubdir.

Uchinchidan, ingliz va o'zbek tillarida obrazlar tizimi qisman mos keladi. Bir qator birliklar to'liq yoki yaqin ekvivalent, ko'pchiligi qisman ekvivalent yoki analogik munosabatda bo'ladi, huquqiy tizimga bog'liq birliklar esa izohli tarjimani talab qiladi. To'rtinchidan, kriminal frazeologik birliklarni adekvat tahlil qilish frazeologik identifikatsiya, semantik, komponent, struktur, kognitiv, lingvokulturologik, qiyosiy va diskursiv-pragmatik metodlarni uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuvni taqozo etadi. Mazkur natijalar ikki tilli kriminal frazeologik lug'at tuzish va badiiy hamda huquqiy matnlar tarjimasi amaliyoti uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Qarshiyeva Sh.T. Frazeologik terminlarning leksikografik tahlili. CARJIS. 2022, 163–169-betlar.

(2). Zokirova S. Phraseology as a Science. The Subject and Tasks of Phraseology. International Journal of Artificial Intelligence. 2024, p. 389–390.

(3). Adaxamjonova M.B., Abduvaliyev M.A. Birth and Development of Phraseology as a Linguistic Discipline in World Linguistics. GIIRJ. 2022, p. 746–747.

(4). Hojiyeva G.S., Olimova M. Types of Phraseologisms According to Semantic Classification. Western European Journal of Linguistics and Education. 2025, p. 33–34.

(5). Norov I., Matmuratova M. O'zbek frazeologiyasining o'rganilish tarixi. 11–13-betlar.

(6). Zerkina N., Kostina N. English Phraseology in Teaching: Interrelation of Theory and Practice, p. 143–144.

(7). Sotvaldieva H.M., Masharipova A.T. "Phraseology as an Independent Branch of Linguistics" – International Journal of Science and Research (IJSR), Vol. 9, Issue 12, December 2020.

(8). Xudoyqulov B. Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari (italyan tilidagi iboralar misolida). Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari. 2021.

(9). Amirkulova N.A. (2020). The Some Problems of Phraseology. Вестник науки и образования, 10(88), Part 2.

(10). Saidova Z.X. Modern Methods of Translating Phraseological Units // Eurasian Research Bulletin. 2022, p. 153–154.

Ergasheva Sadoqat Muratovna (Toshkent davlar Sharqshunoslik universiteti doktoranti; sadafff1989@gmail.com)

NOVERBAL KOMMUNIKATSIYADA ERKAK VA AYOL SOTSIAL ROLLARINING PRAGMATIK INTERPRETATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada noverbal muloqot tizimida erkak va ayol sotsial rollarining pragmatik tabiati tadqiq etiladi. Maqolada genderga xos sotsial rollarning kognitiv freym va ssenariy andozalari asosida qanday shakllanishi, noverbal signallar (kinesik, paralingvistik, proksemik markerlar) orqali yashirin pragmatik ma'no (implikatura va illokutiv maqsad) aks etishi aniqlangan. Noverbal muloqot tizimidagi gender xususiyatlari aniq badiiy parchalar kognitiv-pragmatik interpretatsiyasi misolida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *noverbal kommunikatsiya, gender diskurs, sotsial rollar, pragmatik interpretatsiya, kognitiv freym, implikatura, kinesika, paralingvistika.*

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МУЖСКИХ И ЖЕНСКИХ СОЦИАЛЬНЫХ РОЛЕЙ В НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В данной статье исследуется прагматическая природа мужских и женских социальных ролей в системе невербального общения. В статье определено, как формируются гендерно обусловленные социальные роли на основе когнитивных фреймов и сценарных моделей, а также каким образом скрытое прагматическое значение (импликатура и иллокутивная цель) отражается посредством невербальных сигналов (кинесических, паралингвистических, проксемических мар-*

керов). Гендерные особенности в системе невербального общения раскрываются на примере когнитивно-прагматической интерпретации конкретных художественных фрагментов.

Ключевые слова: *невербальная коммуникация, гендерный дискурс, социальные роли, прагматическая интерпретация, когнитивный фрейм, импликатура, кинесика, паралингвистика.*

PRAGMATIC INTERPRETATION OF MALE AND FEMALE SOCIAL ROLES IN NONVERBAL COMMUNICATION

Annotation. *This article examines the pragmatic nature of male and female social roles in the system of nonverbal communication. The article identifies how gender-specific social roles are formed on the basis of cognitive frames and scenario models, as well as how hidden pragmatic meaning (implicature and illocutionary purpose) is reflected through nonverbal signals (kinesics, paralinguistic, and proxemic markers). Gender features in the system of nonverbal communication are revealed through the cognitive-pragmatic interpretation of specific literary excerpts.*

Keywords: *nonverbal communication, gender discourse, social roles, pragmatic interpretation, cognitive frame, implicature, kinesics, paralinguistics.*

Kirish. Bugungi kunda lingvistik tadqiqotlar markazida inson (antropotsentrizm), uning kognitiv hamda pragmatik (dunyoni anglash va muloqot jarayonida o‘zligini namoyon etish) xususiyatlari turadi. Til va muloqot tizimidagi sotsial rollarning, xususan, gender omilining o‘rganilishi tilshunoslikning eng dinamik sohalaridan biriga aylandi. Inson muloqotining 60dan 90 foizigacha bo‘lgan qismini noverbal vositalar tashkil etishi ma’lum bo‘lsa-da, shu vaqtga qadar lingvistik genderologiyada asosiy urg‘u leksik, morfologik yoki sintaktik birliklarga berib kelindi. Zero, muloqotdagi pragmatik maqsad, yashirin ma’no (implikatura) va sotsial rollarning chuqur interpretatsiyasi ko‘p hollarda verbal tizim ostida yashiringan noverbal kodlar zanjiri bilan aloqador.

Muloqot ishtirokchilarining erkak yoki ayol ekanligi nafaqat ularning nutq uslubini, balki imo-ishora (jest), yuz ifodasi (mimika), ko‘z kontakti, tana harakati (kinesika), shuningdek ovoz toni, sur’ati va jimlik (paralingvistika) kabi noverbal parametrlardan foydalanish strategiyasini ham belgilaydi. Bu jarayon biologik jins bilan emas, balki jamiyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan, inson ongida (kognitsiyasida) muhrlangan sotsial rollar va madaniy freymlar bilan shartlanadi [5;112-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Gender va noverbal kommunikatsiya muammolari jahon hamda o‘zbek tilshunosligida turli rakurslardan tadqiq etilgan. G.E.Kreydlin noverbal semiotika masalalarini tizimli o‘rganib, tana tili va tabiiy til o‘rtasidagi mutanosiblikni, jinsiy-ijtimoiy omillarning noverbal kodlarga ta’sirini tahlil qilgan [5;88-b.]. Gender lingvistikasining fundamental asoslari, jumladan, erkak va ayol suhbatlaridagi pragmatik ziddiyatlar D.Tannen, E.I.Goroshko kabi xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. D.Tannen o‘zining “You Just Don’t Understand” asarida erkaklar va ayollar muloqotini ikki xil submadaniyat vakillari suhbati sifatida baholaydi va bunda noverbal reaksiyalarning o‘rni muhimligini ta’kidlaydi [6;42 p.].

O‘zbek tilshunosligida kognitiv va pragmatik tilshunoslikning nazariy-metodologik asoslari professor Sh.Safarov tomonidan fundamental tarzda yaratilgan [1;12-b.]. Muallif pragmalingvistikani nutqiy faoliyatning barcha ko‘rinishlarini qamrab oluvchi keng qamrovli soha sifatida tushuntiradi. Matnning kognitiv va freymli modellashtirilishi D.U.Ashurova va M.R.Galieva tadqiqotlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, bu metodologiya badiiy matndagi yashirin kognitiv tuzilmalarni aniqlashga xizmat qiladi [2;78 p.]. O‘zbek tilidagi gender xususiyatlarining verballashuvi va sotsiolingvistik aspektlari G.Tojiyeva tomonidan tadqiq etilgan [4;54-b.]. Biroq noverbal vositalarning erkak va ayol sotsial rollari prizmasida aynan kog-nitiv-pragmatik interpretatsiyasi tizimli ilmiy tadqiqot obyekti sifatida hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kognitiv-pragmatik va gender yondashuvlarning sintezidan iborat kompleks metodologiya qo‘llanilgan. Maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Konseptual va freymli tahlil metodi. Erkaklik va ayollik sotsial rollarining o‘zbek kognitiv Makonidagi mental andozalarini (freymlarini) aniqlash [5;34 c.].

Pragmalingvistik interpretatsiya metodi. Noverbal signallar (kinesik va paralingvistik) vositasida uzatilayotgan yashirin pragmatik ma’no – implikaturani matn osti (subtekst) yordamida ochish [1;96-b.].

Konteksual tahlil. Badiiy asar dialoglarida kontekstning (vaziyat, sotsial munosabat, emotsional holat) noverbal kodlar interpretatsiyasiga ta’sirini baholash. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi dialogik diskurslar tanlab olindi va ulardan olingan kontekstual parchalar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. *Sotsial rollar va kognitiv freymlar tizimi.* Pragmalingvistik nuqtayi nazardan, noverbal harakatlar tasodifiy aktlar emas, balki inson ongida mavjud bo‘lgan sotsial rollarga oid kognitiv

freymlarning tashqi proeksiyasidir. Freym – bilimlar tizimining miyadagi tarkibiy qismi bo‘lib, u ma’lum bir sotsial rol egasidan qanday xatti-harakatlar kutilishini tartibga soladi [2;110 p.].

Jamiyatdagi gender munosabatlari ma’lum kognitiv freymlar asosida shakllanadi. “O‘tkan kunlar” romanida nikoh, oilaviy munosabatlar va erkak-ayol mavqei bilan bog‘liq freymlar keng yoritilgan. Asar qahramoni Rahmatning quyidagi fikri bunga misol bo‘la oladi: *“Uylanguchi yigit bilan er qilg‘uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo‘lmay...”* [3;4-b.].

Mazkur fikr o‘sha davr jamiyatida mavjud bo‘lgan *“ota-ona tanlaydi, farzand bo‘ysunadi”* freymini ifodalaydi. Ushbu freymda erkak va ayolning shaxsiy istaklari ikkinchi darajali hisoblanadi.

Otabek esa bu qarashlarga qarshi chiqadi va oilada o‘zaro muhabbat hamda ruhiy moslikni muhim deb hisoblaydi. Bu esa eski va yangi sotsial freymlar o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Demak, romanda gender munosabatlari faqat nutq orqali emas, balki noverbal harakatlar orqali ham shakllanadigan murakkab sotsial-kognitiv tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayol sotsial roli va kinesik qochishning pragmatikasi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ayol qahramonlar nutqi o‘zbek milliy mentalitetining klassik sotsial andozalariga to‘liq bo‘ysunadi. Roman qahramoni Kumushning noverbal xatti-harakatlari uning miyasidagi *“Hayo va andisha”* kognitiv freymi tomonidan qat’iy boshqariladi.

Hasanalining kuzatuvida quyidagi tasvir uchraydi: *“Kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar...”*[3;11-b.].

Bu yerda *“cho‘chib qochish”* oddiy harakat emas, balki pragmatik ma’noga ega bo‘lgan kinesik belgi hisoblanadi. Kumushning chekinishi yoki nigohini olib qochishi uning Otabekka nisbatan befarqligini emas, aksincha, sharqona odob me’yorlariga mos ravishda his-tuyg‘ularini yashirishini bildiradi.

Pragmatik jihatdan kinesik qochish quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- hayo va iboni namoyon etadi;
- bilvosita rozilikni bildiradi;
- ayolning ijtimoiy maqomini saqlaydi;
- romantik munosabatning yashirin signaliga aylanadi.

To‘y sahnasida ham Kumushning hissiy holati noverbal vositalar yordamida ochib beriladi: *“Ko‘z yoshlarini oquzib yangasining so‘ziga quloq osmaydir”* [3;33-b.].

Shuningdek: *“Tashqaridan eshitilgan “kuyav! kuyav!” so‘zi bilan tag‘in ham uning ko‘z yoshisi ko‘payib, tusi ham o‘zgardi”* [3;4-b.].

Ko‘z yoshi, yuz rangining o‘zgarishi va sukut ayolning murakkab ruhiy kechinmalarini ifodalovchi kinesik vositalardir.

Ayol sotsial rolida his-tuyg‘ularni ochiq ifodalashga nisbatan ko‘proq imkoniyat mavjudligi sababli noverbal ekspressivlik darajasi yuqori kuzatiladi.

Erkak sotsial roli va paralingvistik sukut tabiati. An’anaviy jamiyatda erkak kishidan o‘z hissiyotlarini ochiq namoyon etmaslik, vazminlik va jiddiylik talab qilinadi. Bu kognitiv andoza nutqiy vaziyatda kinesik belgilarning (yuz mimikasi va shiddatli jestlar) kamayishi yoki to‘liq bloklanishi – noverbal lakunizatsiyaga olib keladi [5;91-b.]. Romanda erkak obrazlarining kommunikativ xulq-atvori ko‘proq nazorat, vazminlik va hissiyotlarni yashirishga asoslanadi. Bunda sukut muhim paralingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Otabekning ichki kechinmalari tasvirlangan epizodda: *“Oradag‘i so‘zsizlik bir piyoladan choy ichkuncha buzilmadi”* [3;11-b.].

Mazkur sukut kommunikativ bo‘shliq emas, balki ma’no yuklangan paralingvistik birlik hisoblanadi. Otabekning ruhiy iztirobi aynan sukut orqali ifodalanmoqda.

Yana bir misolda: *“Otabek kamoli bo‘g‘ilg‘anidan sukut qilishg‘a majbur bo‘ldi”* [3;89-b.].

Bu holatda sukut norozilik, ichki qarshilik va ruhiy bosim belgisi sifatida xizmat qilmoqda.

Erkak sotsial rolida his-tuyg‘ularni oshkora namoyon etish zaiflik belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli erkak obrazlari, ko‘pincha, hissiyotlarini mimika yoki sukut orqali ifodalaydi.

Homid obrazida ham sukutning o‘ziga xos ko‘rinishi kuzatiladi: *“Homidni yerga qaratib, lom deyishka majol bermay qo‘ydi.* [3;9-b.].

Bu yerda sukut mag‘lubiyat va ijtimoiy bosim natijasida yuzaga kelgan pragmatik reaksiyadir.

Shunday qilib, erkak obrazlarining noverbal kommunikatsiyasida sukut hissiy boshqaruvning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Proksemik va kinesik vositalar orqali gender munosabatlarining ifodalanishi. Noverbal kommunikatsiyada tana yo‘nalishi va suhbatdoshga nisbatan egallangan makon (proksemika) muloqot ishtirokchilarining sotsial va emotsional munosabatini yaqqol ko‘rsatadi [5;204-b.].

“Otgan kunlar” roman qahramonlari o‘rtasidagi munosabatlar, ko‘pincha, proksemik va kinesik belgilar orqali ifodalanadi.

Homidning Otabekka bo‘lgan yashirin adovati quyidagi noverbal vositalarda namoyon bo‘ladi: *“Bir turlik iljayib yer tegidan Hasanaliga ko‘z tashladi”* [3;9-b.].

Yer ostidan qarash va istehzoli iljayish salbiy munosabatning kinesik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Boshqa bir vaziyatda: *“Homid bu maxtashlarg‘a ishtirok etmas va nimadandir g‘ijing‘andek ko‘rinar edi”* [3;9-b.].

Bu yerda yuz ifodasi va umumiy tana holati orqali hasad hamda norozilik ifodalanmoqda.

Otabek va Kumush munosabatlarida esa, aksincha, yaqinlik va hissiy bog‘liqlik kuzatiladi. Bunda nigoh, ko‘z yoshi, chekinish va tortinish kabi vositalar muhim kommunikativ vazifani bajaradi.

Proksemik vositalar qahramonlar o‘rtasidagi psixologik masofani ifodalasa, kinesik vositalar ularning ichki hissiyotlarini namoyon qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, romandagi erkak va ayol obrazlari turli kommunikativ strategiyalardan foydalanadi.

Ayol obrazlarida:

- ko‘z yoshi;
- nigohni olib qochish;
- yuz rangining o‘zgarishi;
- tortinish;
- kinesik chekinish ustuvor bo‘lsa, erkak obrazlarida:
- sukut;
- vazminlik;
- hissiyotlarni yashirish;
- istehzoli kulimsirash;
- masofa saqlash ko‘proq kuzatiladi.

Bu holat genderga oid sotsial stereotiplarning noverbal kommunikatsiyada qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Xuolsa va takliflar. Erkak va ayolning noverbal xatti-harakatlari faqatgina biologik omillar emas, balki ularning ongida mavjud bo‘lgan va jamiyat tomonidan muhrlangan kognitiv freym hamda sotsial ssenariylar tomonidan boshqariladi va cheklanadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida erkak qahramonlar (Otabek) sotsial roli, ko‘pincha, kinesik vazminlik va hissiyotlarni jilovlash freymiga tayanadi. Ularning muloqotdagi noverbal lakunalari (yuzning sovuq qotishi, sukut) kuchli emotsional inqiroz va uning o‘ta qat’iyatli pragmatik implikaturasini yuzaga keltirsa, mikrokinesik belgilar (lab titrashi) ichki dinamikani fosh etadi.

Ayol qahramonlar sotsial roli andisha, iffat, hayo hamda ichki isyon subfreymlari bilan shartlanib, ularning nutqida vizual qochishlar, paralingvistik pauzalar (jimlik), proksemik teskari o‘girilishlar ustunlik qiladi. Bu vositalar muloqotda verbal bildirilishi taqiqlangan yashirin norozilik, og‘riq, hayajon yoki rad etish kabi pragmatik ma’nolarni mukammal ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy matn tahlilida noverbal kodlarni kognitiv-pragmatik interpretatsiya qilish qahramonlarning verbal nutqi ortida yashiringan asl motivlarini, ruhiy holatini va ijtimoiy munosabatlar dinamikasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, noverbal muloqot gender sotsiolekti tizimida sotsial rollarni interpretatsiya qiluvchi, matnning yashirin pragmatik qatlamini (implikaturasini) ochib beruvchi eng quvvatli semiotik tizim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 288-bet.

(2). Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. Tashkent, “Vneshinvestprom’, 2018, 160 p.

(3). Qodiriy A. O‘tkan kunlar. www.ziyouz.comkutubxonasi

(4). Tojiyeva G. O‘zbek tilida gender xususiyatlarning verballashuvi. Toshkent, “Fan”, 2020, 145-bet.

(5). Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. Язык тела и естественный язык. М., “Новое литературное обозрение”, 2002, 592 с.

(6). Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. М., УРСС, 2004, 256 с.

(7). Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York, Ballantine Books, 2001, 352 p.